

BOSHQARUV TIZIMIDA MUROJAATLARNI ME'YORLASHTIRISH VAZIFASI VA YECHIMI

Axmedova Iroda Nurmuhammedovna

Tashkent International University of Education

E-mail: akhmedovairoda11@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda muallif “Raqamli O‘zbekiston - 2030” Strategiyasida elektron hukumat tizimini rivojlantirishga qo‘yilgan masalalar yuzasidan boshqaruvda elektron hukumat tizimining vazifalari va imkoniyatlari xususida fikr bildiradi. Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi ko‘rsatkichlari xususida bayon etadi.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, elektron hukumat tizimi, AKT, onlayn xizmatlar indeksi, telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi, inson kapitalining indeksi.*

THE TASK AND SOLUTION OF NORMALIZATION OF APPEALS IN THE MANAGEMENT SYSTEM

Axmedova Iroda Nurmuhammedovna

Tashkent International University of Education

E-mail: akhmedovairoda11@gmail.com

Abstract. In this thesis, the author expresses his opinion on the tasks and possibilities of the electronic government system in the management of the issues set for the development of the electronic government system in the "Digital Uzbekistan - 2030" Strategy. It describes the indicators of the e-government development index.

Keywords: *governance, e-government system, ICT, online services index, telecommunication infrastructure index, human capital index.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O‘zbekiston — 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 05 oktyabrda PF-6079-son farmonida: “Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan [1].” deb keltirilgan bo‘lib, mamlakatimizning turli jabhalarida axborot –kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali raqamli iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan masalalar qatorida sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, «Buyumlar interneti», «sun‘iy intellekt» kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027 yilga kelib, apparat qismini esa 2030 yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliy lashtirish; yechimini topish [1] vazifalari qo‘yilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining davlat boshqaruvi organlarida izchil joriy etilishi AKTdan davlat boshqaruvida qo‘llash doirasini kengaytiradi va davlat organlarini, fuqarolar va tashkilotlarni o‘zaro elektron munosabatlarga asoslanib, katta loyihalarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda ko‘pchilik davlat organlarida

elektron hujjat aylanishi tizimi, xodimlar hisobini olib borish jarayoni avtomatlashtirilgan, buxgalterlik hisobi va moliyaviy boshqaruv, boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayonlarini quvvatlash yaratilgan, hududiy-tarmoqlangan tarmoqning shakllanishi davom etmoqda. “Elektron hukumat”ning shakllanish jarayonida quyidagi vazifalarni yechish lozim: hukumat axborot tizimlarining o'zaro mosligi va rivojlanish muvofiqligini ta'minlash; kompyuter tarmog'iga davlat organlarining keng doiradagi murojaatini ta'minlash; hukumat axborot tizimini integratsiyalash, ma'lumotlarga murojaatlarni me'yorlashtirish; axborot-ma'lumot tizimini rivojlantirish va elektron kommunikatsiyani davlat xizmat ko'rsatish jarayonlariga tadbiq etish; natijaga qarab boshqaruv tizimini joriy etish.

Iqtisodiy boshqarish sub'ekti sifatida “elektron hukumat”ning vazifasi:

Maqsadli – asosiy milliy iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va prioritetlarini, maqsadini aniqlash.

Me'yoriylashtiruvchi – hukumat qonunchilik, me'yoriy - huquqiy bazalariga asoslanib, iqtisodiyot sub'ektlari uchun faoliyat qoidalarini belgilaydi, faoliyat doirasi huquqlarini aniqlaydi.

Muvofiqlashtiruvchi – jamiyatning yashash sharoitini ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan mo'tadilligini ta'minlash va salbiy oqibatlariga olib kelishini bartaraf etish, takomillashuv jarayonlarini rivojlantirish maqsadida iqtisodda resurslarni taqsimlash.

Ijtimoiy – hukumat tomonidan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, foydani taqsimlash, ijtimoiy himoyani, ijtimoiy huquq va kafolatni ta'minlash.

Bozor sektori bo'lmagan iqtisodiy boshqarish - iqtisodning davlat sektorini muvofiqlashtirish, ijtimoiy jamiyat mahsulotlari va xizmatlarini yaratish.

Rag'batlantiruvchi – faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlariga samarali ta'sir ko'rsatish va jamiyat yo'nalishlari uchun ma'qul bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirish.

Nazorat qiluvchi – davlat nazorati va qonunlar me'yoriy - huquqiy hujjatlar, belgilangan iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy standartlar ijrosini nazorat qilish.

Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish uchun alohida shaxs, jamoa va jamiyat qiziqishlarini har tomonlama inobatga olish va mukammal qarorni shakllantirishda hukumat ilmiy tashkilotlarni, siyosiy partiyalarni, jamoat va diniy tashkilotlarni jalb qilishi mumkin.

“Elektron hukumat” - bu davlat boshqaruv organlari faoliyatini yangicha tashkil etish shakli hisoblanib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, tashkilot va fuqarolar uchun hukumat xizmatlaridan foydalanish bilan bir qatorda davlat organlari faoliyati natijalari haqidagi ma'lumotlarni qulay tarzda yuqori darajadagi tezkorlikda olishni ta'minlashdir.

Elektron hukumat quyidagilarga imkon yaratadi:

- Aholi va tijoratda oson va tez xizmat ko'rsatish;
- O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish jarayonlariga fuqarolar aktivligini (jadal ishtirokini) oshirishni;
- Fuqarolarning texnologik savodxonlik darajasini oshirishni;
- Mamlakatni boshqarish va rahbarlik qilish jarayonlarida saylovchilar aktivligini oshirishni;
- Fuqarolarning geografik joylashishidagi ta'sirlarni kamayishini.

Elektron hukumat quyidagilarni ta'minlaydi:

- Samarali va kam xarajatli ma'muriyatni (ma'muriy boshqaruvni);
- Jamoatchilik va hukumat o'rtasida o'zaro munosabatlarni tubdan o'zgarishini;

- Demokratiyani takomillashuvini va hukumatning xalq oldidagi mas'uliyatini oshirishni.

Elektron hukumatda erishiladigan eng katta yutuqlardan biri bu o'z uyi yoki ofisidan chiqmagan holda ixtiyoriy hujjatlarni rasmiylashtirish, hattoki shaxsiy kompyuterdan foydalanib, byurokratik to'siqlarni oqlagan holda va qog'ozvozlilarni kamaytirgan holda elektron to'lovlarni amalga oshirishdan iborat.

Elektron hukumatni joriy etish natijasida davlat boshqaruvi samaradorligi qatorida hukumat faoliyatidagi shaffoflik oshadi, bu o'z navbatida davlat xizmatchilari tajribasidagi korruptsiya darajasini keskin kamayishiga olib keladi. Fuqarolarda virtual tizim orqali hukumatga bog'lanish imkoniyati yuzaga keladi.

Elektron hukumat – davlat o'zining katta qism vazifalarini, asosiy xizmat turlarini elektron ko'rinishga o'tkazadi. Elektron hukumatning jamoatchilik vazifasi – davlatning tijorat bilan, davlatning fuqaro bilan va davlatning ichki davlat organlari bilan o'zaro munosabatidir.

Shuning uchun ham elektron hukumatning asosiy ichki modellari sifatida to'rtta munosabat qaraladi: G2C(Government to Citizen) – davlat va fuqarolar o'rtasidagi, G2B(Government to Business) – davlat va tijorat o'rtasidagi, G2G(Government to Government) – davlat hukumatining turli tarmoqlari o'rtasidagi, G2E – davlat va davlat xizmatchilari o'rtasidagi (Government to Employees).

Elektron hukumat yaratishning asosiy vazifasi – servis va servis xizmatini ko'rsatish uchun infrastrukturani yaratishdan iborat.

Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (EHRI) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2001 yildan buyon yuritilib, mamlakatlarning milliy elektron hukumat tizimining rivojlanganlik darajasini o'lchaydi. EHRIning tashkil etuvchi uchta tarkibiy indekslar elektron hukumatga doir keng miqiyosdagi mavzularni qamrab oladi:

Indeks 3 ta indikator bo'yicha hisoblab chiqariladi:

1. Onlayn xizmatlar indeksi (OXI);
2. Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (TII);
3. Inson kapitalining indeksi (IKI).

Onlayn xizmatlar indeksi (OXI) hukumatning elektron shaklda xizmat ko'rsatish hamda o'z fuqarolari bilan muloqotda bo'lish darajasini, Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (TII) fuqarolarning elektron hukumatda ishtirok etishlari uchun zarur bo'lgan infratuzilmalarning mavjudlik darajasini, Inson kapitalining indeksi (IKI) esa fuqarolarning elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish malaka va qobiliyati darajasini o'lchashga qaratilgan.

“Raqamli hukumat kelajagi” nomi bilan e'lon qilingan Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi bo'yicha O'zbekiston 2022 yilda avvalgi hisobotga nisbatan 18 pog'ona ko'tarilib, 193 ta mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi [2].

Ma'lumot o'rnida tavsiflaydigan bo'lsak, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi Birlashgan millatlar tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti (UN DESA) tomonidan xar ikki yilda bir marotaba tayyorlanib, 2030-yilga qadar belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlari (UN Global sustainable development goals –2030) doirasida elektron hukumat sohasi rivojlanishi holatini baholaydigan nufuzli tadqiqot hisoblanadi hamda 6 ta indeksarga birlashtirilgan 18 ta indikatorlarni o'z ichiga oladi.

Elektron hukumat rivojlanishi reytingida mamlakatimiz 2020 yilda 87-o'rinni egallagan bo'lsa, mazkur yilning o'zida “Raqamli O'zbekiston-2030” Strategiyasi (05.10.2020 yildagi PF-6079-son Farmon) qabul qilinishi va uning doirasida telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni raqamli iqtisodiyotning barcha

sohalariga keng joriy etish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida ushbu reyting indikatorlarining yanada oshirilishiga erishildi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston — 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 05 oktyabrdagi PF-6079-son farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/5030957>
2. Дилдора Досчанова. Ўзбекистон республикасининг электрон ҳукумат ривожланганлиги рейтинги бўйича кўрсаткичларини яхшилаш истикболлари // International and practic conference “Improving Uzbekistan’s position in international ratings and indexes: theory, practice and strategy”, November 17, 2023. P. 159-164. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10137560>. Murojaat qilingan sana: 30.04.2024.
3. "Электрон ҳукумат". Х.Зайнидинов, М.Якубов, Ж.Қорабоев, 2014, 2-нашр, "Академия", 270 б.
4. e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, pages – 109.
5. United Nations E-Government Survey 2014. E-Government for the Future We Want, Printed at the United Nations, New York, 2014, pages – 284